

## USMON NOSIR ASARLARINING TILI VA USLUBI

**Nozima Yuldasheva Solijonovna**  
*NamDU ,ligvistika(o'zbek tili) 1- kurs magistranti*

**Annotatsiya:** maqolada yurtimizning ajoyib shoiri bo'lmish Usmon Nosirning qalb kechinmalari asosida yozilgan she'rlarning tahlilini to'liq yoritib bergen. Usmon Nosir she'riyati, avvalo, hayotiyligi, jozibadorligi va isyonkorligi, ayni chog'da, sodda va ravonligi bilan kitobxon qalbidan chuqur o'rin olgan. Shundan bo'lsa kerak, shoir she'rlari hamon davralarda tez-tez yod aytildi

**Kalit so'zlar:** o'zbek she'riyati, so'znmas yuzlduzlar, hayot yo'qli, ijod yo'li boronli yillar.

Usmon Nosir o'zbek she'riyatiga chaqmoqday yalt etib kirib kelgan va yorqin iz qoldirgan iste'dodli ijodkorlardan biridir. U 1912 yil 13-noyabrdan Namangan shahrida hunarmand oilasida tug'ilgan. U yoshligidan otasidan judo bo'ladi va onasi Xolambibi Qo'qonlik Nosirhojiboga turmushga chiqqach Qo'qonga ko'chib keladi. U.Nosir dastlabki savodini Qo'qonda ochilgan internatda chiqaradi. U Qo'qondagi 2-bosqich deb atalgan o'rta mакtabni tugallagach, 30-yillarning boshlarida Samarqanddagi pedakademianing (hozirgi SamDU) til va adabiyot fakultetida ta'lim oladi. U.Nosirning dastlabki mashqlari internatda o'qib yurganidayoq yaratila boshlagan edi. Shoir ijodiy merosi birin-ketin nashr qilangan beshta she'riy to`plam – «Quyosh bilan suhbat» (1932), «Safarbar satrlar» (1932), «Traktorobod» (1933), «Yurak» (1935), «Mehrim» (1936) hamda «Norbo`ta » (1932), «Shaxshon» (1934) deb nomlanuvchi ikki doston va «Atlas» nomli she'riy dramalardan tashkil topgan. Bundan tashqarii, Pushkinning «Bog`chasarov fontani» va Lermentovning «Iblis» («Demon») asarlarini o'zbekchaga o'girgan. Mustabid tuzumning 30-yillardagi qatog'onlik siyosati Usmon Nosirni o'z qurbaniga aylantirdi. 1937 yilda qamoqqa olingan Usmon Nosir tutqunlikning og'ir azob-uqubatlari oqibatida 1944 yilda vafot etadi.

Usmon Nosir ijodini mavzu ko'lami va poetik obrazlar yaratishi nuqtai nazaridan ikki yo'naliшga ajratish mumkin. Birinci yo'naliшni davr uchun an'anaviy yo'sinda bo'lgan, zamondosh shoirlar ijodi uchun ham xarakterli bo'lgan mavzularda yaratilgan asarlari tashkil etadi. «Bobomning falsafasi», «Karvon boradi», «Begona, «Gulzor-chaman...» deb boshlanuvchi she'rlari, «Norbo`ta», «Naxshon» dostonlari, «Atlas» dramasi shular jumlasidandir. Bu tipdagи asarlarda ham garchi shoirning mahorati ko'zga tashlansa-da, biroq lirik qahoamon ruhiyatida kechayotgan tuyg'ular zamon g'oyalalariga mos yoki Ushbu g'oyalarni o'zida mujassamlashtirganligi bilan xarakterlanadi. Bu hol esa lirik qahramon qiyofasiga ma'lum darajadasoya tashlaydi, soxta ko'tarinkilik baxsh etadi.

U.Nosir ijodining asosini ikkinchi yo'naliш, ya'ni poetik mahorat bilan yaratilgan chinakam san'at namunasi darajasiga ko'tarilgan asarlari tashkil etadi. Bu jihatdan

shoirning «Yurak», «Ikki she'r», «Yana she'rimga», «Bog'im», «Namimaga deganim», «Yo'Ichi», «Shirin bo'ldi hayot iqlimi», «Yuoraman oqarib yotadi yo'llar», «Moviylit dengizi borliqni ko'mgan», «Monolog», «Nil va Rim» kabi ko'plab lirik, falsafiy xaraterdagи she'rlar, sonetlar xarakterlidir.

Bu tipdagи she'rlarda shoir lirik qahramonning turfa xil ruhiy holatlarini mohirlik bilan chizadi. «Yurak» she'rida lirik qahramon qalbi yashash zavqi, ijod dardi bilan to'lib-toshgan yuksak vatanparvarlik timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Lirik qahramon shijoati, e'tiqodi shunday kuchliki, u hech qanday murosaga yo'l qo'ymaydi.

U.Nosir faqat lirik xarakterdagи she'rlar yaratibgina qolmay, falsafiy she'rlarning ham go'zal namunalarini taqdim etgan shoirdir. Uning «Monolog», «Nil va Rim» kabi asarlari shular jumlasidandir. Har ikala asarda ham dav rva shaxs fojiasi yuksak darajada mahorat bilan ifodalangan. «Monolog» she'rining zohiriy mazmunida «asrlarni yig'latgan sevgi»ga qarshi isyon ko'targan oshiq obrazi tasvir etilgan. Shoir asrlar qa'riga nazar tashlab sevgi fojiasini Petrarka, Dante, Shekspir qahramonlari taqdiri misolada yoritib beradi. Ta'kidlash zarurki, she'rda «sevgi» poetik timsoli orqali badiiy mazmun ham ifodalanganini ko'ramiz. She'rdagi botiniy mazmun odamning o'zinigina emas, balki hislarni ham xarob qilgan davrga nisbatan isyonkorlik ruhini ifodalashda namoyon bo'ladi. «Nil va Rim» she'rida ham inson erki, ozodlik uchun kurash g'oyasi falsafiy xarakterda o'z ifodasini topgan. Asarda tarixiy manzaralar xarakterli detallar orqali kitobxon ko'z o'ngida gavdalantiriladi.

«Norbo'ta» va «Naxshon» dostonlarida ham davr fojialari u yoki bu darajada o'z aksini topgan. «Norbo'ta» dostonida fuqarolar urushi fojialari tasvirlanadi. Bu davrda ota bolaga, aka ukaga dushman bo'lib bir-biriga miltiq o'qtalishlari («Chasovoy» bo'limi) realistik aks ettirilgan. To'g'ri, asarda shoir nuqtai nazari hokim tuzum tomonida, biroq voqelikni haqqoniy aks ettirish bu nuqtai nazardan ustunlik qilgan. Inqilobiy mavzuda yozilgan «Naxshon» dostoni arman xalqi hayotiga bag'ishlangan bo'lib, ozodlik uchun kurash g'oyasi Maro, Naxshon, Sarkis kabi obrazlar orqali ilgari suriladi.

Usmon Nosir asarlarida qo'llangan badiiy san'atlар xususida.

She'riyatning tabarruk ,muqaddas dargohida anvoyi bir chamanzor ,sira xazon bo'lmaydigan mo'jaz bog' yaratib ketgan Usmon Nosir ulug' va abadiy she'riyatning diydasidan oqib ulgurmagan shabnamadir.U hali qahqahaga aylanmay lablarimizda manguga qotib qolgan tabbasumdir.Uning she'rlari ko'z kabi tirik ,jonli,tutqich bermas hayot poralaridir.

Bog'larga namozgar salqini tushdi

Gullar ham bargini qayirdi asta

Oftob ham suv ichar tog'lardan pastda

Loladek qip-qizil o't-shafaq o'chdi.

Bu kabi satrlar ijodkorning umuman she'riy qiyofasini, poetik ohangini belgilaydi . O'zining yuksak matonati va xalqparvarligi ,betakror istedodi bilan "Xalq dushmani" tamg'asi bosilib qamoqqa olinganda ham ,zamon zayli bilan tegirmon umoniga

tashlanganda ham, u hech qachon o'zining jo'shqin harakatidan to'xtamagan .O'zining el-yurt oldida mutlaqo aybsiz ekanligiga qat'iy ishongan.Jasoratli ,otashqalb Usmon Nosir 1940-yil 2-avgustda kimsan o'sha Stalin nomiga ariza yozadi.Qamoqda o'tirgan vaqtida ham "She'riy roman", 3ta sahna asari,ko'plab she'rlar yozganini xabar qiladi "Men hali yoshman,g'ayratga to'laman! Men halqimning farovonligi uchun ijod qilishim kerak,men aybsizman"-deya "Saltanat sultoniga" ariza bitgan dovyurak shoir edi.Unga nisbatan oqlov e'lon qilinganda afsuski shoir bu dunyoda o'chmas umr zarvaraqlarini to'ldirib bo'lgandi.

2022-yil 10-fevral kuni O'zbekiston Prezidenti tomonidan "Otashin shoir, tarjimon va dramaturg Usmon Nosir tavalludining 110 yilligini keng nishonlash to'g'risida qaror qabul qilindi". Bu esa Namangan adabiy muhitidan chiqan o'ktam shoirga chuqur hurmat va ehtrom ifodasi edi.

Filologiya fanlari kandidanti ,dotsent O'tkir Rashid tabiri bilan aytganda "Shoir hali yashayapdi. U sevgan bog'ida, sevgan elinining dilida yashayapdi".

Usmon Nosir she'rlarining mavzui ,mazmuni, xarekteri va tabiatiga qarab adabiyotshunos Ibrohim G'ofurov Usmon Nosirni "Yo'lchi" deb ataydi."U har bir she'rida bizga yo'lchi siymosida gavdalanadi.U o'zini yo'lchi deb atashni yaxshi ko'radi",-deydi.Bu tabir to'g'ri shoir xuddi sayohatchi ,yo'lchi kabi yurib ,yo'llarda ko'rgan odamlarni, hodisalarni va tabiiat go'zaligini suratini she'r orgali oladi. Ijodkor lirikadan tashqari "Norbo'ta", Naxshon" dostonlari "Atlas","So'ngi kun","Zafar" "Dushman" dramalar mualifi hisoblanadi.

Ko'z tutdim, ko'zlarim nigoron bo'ldi,  
O,dilbar,siymbaram,yuzlari qirmiz,  
Kiprigi ko'ksiga soya slogan qiz,  
Ko'z tutdim,yuragim to'la qon bo'ldi.

"Naxshon" dostonidagi bu parchada shoirning maashuqani intizor nigohi bilan kutgan ekanligini ,u naqadar go'zal ,xatto kipriklari uzunligidan ko'ksiga soya solishini aytadi.Shu o'rinda shoir Muhammad Yusufning "Kipriklari uzun kokillaridan ..." misralari beixtiyor yodimizga tushadi.

O'zbek adabiyotining yorqin va zabardast shoirlaridan biri, shubhasiz, Usmon Nosirdir. Usmon Nosir - o'zbek Lermontovi, o'zbek adabiyotining chaqmoq shoiri. Shoир atigi 32 yil umr ko'rgan bo'lsada, o'zbek she'riyatiga ulkan meros qoldirishga ulgurdi.

Usmon Nosir 1912 yilning 13 noyabrida Namanganning Chuqurko'cha dahasida dunyoga keladi. Shoир to'rt yoshlida otasi vafot etadi. Onasi Xolambibi Nosirhoji ismli insonga turmushga chiqadi va oila Qo'qonga ko'chib o'tadi. Shunda Nosirhoji yosh Usmonni bolalar uyiga topshiradi. Usmon Nosir maxsus internatda ta'lim oladi.

1929-1930 yillarda atigi bir yil Usmon Nosir Moskva Kinematografiya institutining stsenariy fakultetida o'qiydi, biroq o'qishini tugallamaydi. 1930-1933 yillarda Qo'qondagi qisqa muddatli ta'lim va tarbiya kurslarida o'qituvchi, ilmiy bo'lim mudiri va shahar teatrida adabiy emakdosh bo'lib ishlaydi.

1930-1933 yillarda Usmon Nosir Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Pedagogika akademiyasi (hozirgi Samarqand Davlat universiteti)ning til va adabiyot fakultetida bir muddat tahlil oladi. 1934 yil Toshkentga ko'chib keladi va "Yosh Leninch" gazetasida ishlaydi.

Bo'lajak shoirning ilk she'ri "Haqiqat qalami" bo'lib, 1927 yilda "Yangi yo'l" gazetasida bosib chiqiladi. 1931 yilda fuqarolar urushi mavzuiga bag'ishlangan "Norbo'ta" nomli dostonini yaratadi. Doston "Yangi Farg'ona" gazetasida e'lon qilinadi. Shoirning ilk she'riy to'plamlari "Quyosh bilan suhbat" va "Safarbar satrlar" 1932 yilda nashr etiladi. Shundan so'ng "Naxshon", "Nil va Rim" dostonlarini, 1934 yilda "Traktorobod", 1935 yil "Yurak" va 1936 yilda "Mehrim" nomli she'riy kitoblari nashr etiladi.

U.Nosirning «Atlas» dramasi talabalar hayotidan olingen bo'lib, Atlas va Orzumandlarning muhabbat tasviri orqali sevgi-muhabbat, vafo va xiyonat kabi muammolarga munosabat bildiriladi. U.Nosirning tarjimalari ham adabiy merosining bir qismi bo'lib, o'zbek tarjimachiligiga kata hissa bo'lib qo'shilgan. Xulosa qilib aytganda U.Nosir qisqa vaqt ijod qilganiga qaramay, o'zbek adabiyoti rivojiga munosib hissasini qo'sha olgan iste'dodli ijodkorlardan biridir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Adabiyot, Akademik litsey uchinchi bosqich o'quvchilari uchun, "Bayoz" Toshkent-2016-yil,
2. Belinskiy V. G., Tanlangan asarlar, T., 1955;
3. Hammulliflar. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. T., «O'qituvchi», 1999.
4. Imomov B., Jo'rayev Q., Hakimova H., O'zbek dramaturgiyasi tarixi, T., 1995;
5. Karimov N. Usmon Nosir. T., «Sharq», 1993.
6. Karimov N va boshq. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. (darslik), -T.: O'qituvchi, 1999.
7. Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti. - T.: Yangi asr avlod, 2005.
8. Mirvaliev S. O'zbek adiblari. -T.: „Yozuvchi“, 2000.